
On the Homonymy of Paralinguistic Means

Barotova Muxiba Orifovna
muhibabarotova1@gmail.com
Doctoral student,
Jizzakh State Pedagogical University

Annotation *This article provides a theoretical and scientific analysis of the phenomenon of homonymy in paralinguistic means. It highlights the role of paralinguistic units in the communicative process, as well as their semantic and pragmatic features. Furthermore, the homonymous nature of nonverbal units that share the same form but express different meanings is revealed through illustrative examples. The results of the study are of significant importance for the fields of paralinguistics and speech culture. The article emphasizes that studies on paralinguistic means have increasingly become a subject of growing interest in both world and Uzbek linguistics. In particular, it highlights the insufficient investigation of semantic relations among paralinguisms, as well as the interrelations between verbal and nonverbal units. The present article mainly focuses on the homonymous features of kinetic paralinguistic means. Based on textual examples drawn from Uzbek prose literature, it reveals cases of formal similarity among paralinguisms formed through movements of the head and hands. In Uzbek linguistics, the scientific foundation of nonverbal communication studies has not yet been fully established. Investigating the issue of homonymy contributes to revealing the semantic potential of the paralinguistic system. Uzbek gestures and mimetic expressions are closely connected with the national mentality; therefore, their polysemy reflects the communicative culture of the people.*

Keywords *Paralinguistics, paralinguistic means, homonymy, nonverbal communication, facial expressions, gestures*

Paralingvistik vositalar omonimiyasi haqida

Barotova Muxiba Orifovna
muhibabarotova1@gmail.com
Doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada paralingvistik vositalarning omonimiyasi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Paralingvistik vositalarning kommunikativ jarayondagi o'рни, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, bir xil shakldagi, ammo turli ma'nolarni ifodalovchi noverbal birliklarning omonimik tabiati misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari paralingvistika va nutq madaniyati sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Paralingvistik vositalar haqidagi tadqiqotlar jahon va o'zbek tilshunosligida tobora keng qiziqishlarga sabab bo'layotgan mavzu ekanligi maqolada ta'kidlangan. Ayniqsa, paralingvizmlar o'rtasida hamda verbal birliklarning noverbal birliklar bilan o'zaro ma'noviy munosabatlari borasidagi tadqiqotlar yetarli darjada o'rganilmaganligi maqoladagi fikrlarda ta'kidlangan. Ushbu maqolada, asosan, kinetik paralingvistik vositalarning omonimlik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, bosh va qo'l a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan paralingvizmlarning shakldoshlik holatlari o'zbek adabiyoti nasriy*

asarlaridagi matnlar orqali ochib berilgan. O'zbek tilshunosligida Noverbal kommunikatsiya bo'yicha ilmiy baza hali to'liq shakllanmagan. Omonimiya masalasini o'rganish paralingvistik tizimning semantik imkoniyatlarini ochib beradi. O'zbekona imo-ishora va mimikalar milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli ularning ko'p ma'noliligi xalqning muomala madaniyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Paralingvistika, paralingvistik vositalar, omonimiya, noverbal kommunikatsiya, mimika, imo-ishora*

Об омонимии паралингвистических средств

Баротова Муhiba Орифовна
muhibabarotova1@gmail.com
Докторант,
Джизакский государственный педагогический
университет

Аннотация *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется проблема омонимии паралингвистических средств. Освещается роль паралингвистических единиц в коммуникативном процессе, а также их семантические и прагматические особенности. Кроме того, на основе примеров раскрывается омонимическая природа невербальных единиц, имеющих одинаковую форму, но выражающих различные значения. Результаты исследования имеют важное значение для паралингвистики и культуры речи. В статье подчёркивается, что исследования паралингвистических средств становятся одной из тем, вызывающих всё больший интерес как в мировой, так и в узбекской лингвистике. Особо отмечается недостаточная изученность вопросов семантических отношений между паралингвизмами, а также взаимосвязей вербальных и невербальных единиц. В данной статье основное внимание уделяется омонимическим особенностям кинетических паралингвистических средств. На материале прозаических произведений узбекской литературы раскрываются случаи формального сходства паралингвизмов, образуемых при участии движений головы и рук. В узбекском языкознании научная база в области невербальной коммуникации ещё не получила полного формирования. Изучение проблемы омонимии способствует выявлению семантических возможностей паралингвистической системы. Узбекские жесты и мимические средства тесно связаны с национальным менталитетом, вследствие чего их многозначность отражает особенности коммуникативной культуры народа.*

Ключевые слова *Паралингвистика, паралингвистические средства, омонимия, невербальная коммуникация, мимика, жесты*

Kirish

Til insoniyatning asosiy kommunikativ vositasi bo'lsa-da, muloqot jarayoni faqat lingvistik birliklar bilan cheklanmaydi. Nutqda turli paralingvistik vositalar – mimika, imo-ishora, intonatsiya, pauza va boshqa noverbal elementlar muhim rol o'ynaydi. Ular nutq mazmunini boyitadi va ko'pincha asosiy ma'noni aniqlashtiradi. Paralingvistik vositalar nutqning nolingvistik, biroq mazmun ifodalashda faol ishtirok etuvchi komponentlari sifatida e'tirof etiladi (Tursunova, 2023). Shuningdek, bu vositalar nutq jarayonida ma'no, his-tuyg'u, ijtimoiy status, muloqot sharoiti va madaniy kontekstni aks etturuvchi vosita deb ham qaraladi (Barotova, 2025). So'nggi yillarda paralingvistika sohasida sezilarli tadqiqotlar olib borilganligi bu yo'nalishga nisbatan qiziqishning oshganligini isbotlaydi. "Paralingvistika" atamasi ilmiy muomalaga XX asr boshlaridan kirib kelgan bo'lsa-da, uning rivoji so'nggi yillarda yaqqol namoyon bo'ldi (Hamdamova, 2026). Xususan, o'zbek tilshunosligida A.Nurmonovning noverbal vositalarning turlari, ularning kommunikatsiya jarayonidagi roli, vazifasi haqidagi nazariy qarashlari (Nurmonov, 1980) soha rivojida muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Olim S.Mo'minov "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik ishida paralingvistik vositalarning genderologik xususiyatlari bo'yicha fikr yuritib, o'zbek erkak va ayollar foydalanadigan paralingvistik vositalar haqida ma'lumot bersa (Mo'minov, 2000), Sh. Iskandarova "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida nutq muloqoti jarayonida paralingvistik vositalarning ahamiyati yuqoriligini, ular orqali adresantning maqsadi va fikri oson tushunilishini bayon qiladi (Iskandarova, 1993). Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilshunosligida paralingvizmlar masalasiga alohida e'tibor qaratilib, turli aspektlarda tadqiq etilganligi namoyon bo'ladi. Shunga qaramasdan, ushbu birliklar orasida

yoxud til birliklari bilan o'zaro munosabatga kirishganda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan sinonimiya, omonimiya va polisemantiklik munosabatlari, antonimiya masalasi yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur maqolada kinesik paralingvizmlarning omonimlik holatlari atroflicha tahlil qilingan.

Asosiy qism

Tilshunoslikda omonimiya – shaklan bir xil, ammo ma'nosi turli bo'lgan birliklar hodisasidir. An'anaviy ravishda bu hodisa leksik birliklarga nisbatan qo'llaniladi. Lug'atlarda omonimlikka quyidagicha ta'rif berilgani muzatiladi: "Omonimlar (omo ... va yunoncha: *oputa – nom, ism*) – umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlar; ular orasida semantik aloqa bo'lmaydi. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq hodisalar *omonimiya* deyiladi. Omonimlarning lug'aviy va grammatik ko'rinishlari farqlanadi" (Wikipedia). Ta'kidlanganidek, leksik, grammatik, frazeologik, morfemik omonimlar farqlanishi barchaga ma'lum. Xo'sh, paralingvistik omonimlar ham mavjudmi? Agarda bor bo'lsa, u qanday shaklda va ma'nolarda namoyon bo'ladi? Albatta, omonimiya hodisasini noverbal birliklarga nisbatan ham tatbiq qilish mumkin, ya'ni bir xil imo-ishora yoki mimika turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha ma'no anglatishi orqali omonimlik hosil bo'ladi. Misollarga yuzlansak:

1. "Bosh chayqamoq" harakati orqali quyidagi kommunikativ maqsadlar farqlanadi:

a) *afsuslanmoq*: – Voy poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku!

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.
– Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! – dedi Hoji buvi boshini chayqab. – Shu ahvolda qandoq keldingiz? Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 8)

- b) *uyalmoq*: – Oyi-i, non! – dedim yalinib. Oyim yarq etib qaradi-yu, labini tishlab bosh chayqadi. Bildimki, onam uyalyapti. Endi Habiba buviga tarmashdim. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 32)
- c) *inkor etmoq*:
– Sezyapsizmi?
– Nimani? – dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.
– Qo'limni sezyapsizmi?
Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi... Ertasiga u yotib qoldi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 8)
- d) *bexabarlik*:
– Teplitsani kim sindirdi?
– Bilmayman.
– Bilmaysanmi? – O'qituvchi qahr bilan ovozini balandlatdi. – Bo'lmasa, kim tosh otdi? Tomog'imga bir nima tiqilib turar, gapirsam yig'lab yuborishimni bilar edim.
– Kim?! – dedi o'qituvchi battar g'azablanib. Labimni tishlagan bosh chayqadim. – Mana bu, – dedi u barmog'ini menga nuqib, – qilg'iliqni qilib qo'yib, tonyapti. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 11)
- e) *dakki bermoq*:
Meni Odilxo'ja-yu Mahmud bukur ham, Muborak chevar-u, "Zinger" mashinasi ham qiziqtirmas, ikki ko'zim qandda edi. O'zimning borligimni bildirib qo'yish uchun qalamtaroshni qo'limdan tushirib yubordim. Oyim yalt etib qaradi-yu, pastki labini tishlab, bilinar-bilinmas bosh chayqab qo'ydi. Bu – "uyat bo'ladi, chiqib ket", degani edi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 24)
- f) *tasdiqlamoq*:
Ana o'shanda Olloyi taoloning qattiq qahri kepti. U yurtni ham, bu yurtni ham cho'lbiyobonga aylantirib tashlabdi. U yurtda ham, bu yurtda ham, bironta qimirlagan jon, na bitta daraxt, na bitta o't-o'lan, na bir tomchi suv – hech nima qolmabdi... Ermon buva nosini tupurib chuqur xo'rsinadi. "Ana shunaqa gaplar", degandek ma'nodor bosh chayqab qo'yadi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 24)
Ba'zi manbalarda paralingvistik birliklar polisemantiklik xususiyatini ifodalashi haqidagi

qarashlar beriladi, ammo yuqoridagi misollarga diqqat qaratsak, omonimik tabiati yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki ma'no to'liq kontekstga bog'liq holda farqlanadi, shuningdek, birinchi maqsad va boshqa maqsadlar o'rtasidagi ma'noviy bog'liqlik uzilganligi ham fikrimizni dalillaydi.

Bosh bilan bog'liq kinetik noverbal vositalar orasidagi omonimlik faqat shu bilan cheklanib qolmaydi.

2. **Boshini quyi solmoq** – pastga solintirmoq, quyi solmoq, egmoq.
- a) *taqdirga tan bermoq*: – Men-ku shu yerning odamiman, – Dalavoy ovozini pasaytirdi. – Ammo o'rtoq Toshevning oldida, shu ish shundoq bo'lgani chatoq bo'ldi. Katta odam. Qamatmaguncha qo'ymayman deyapti. Ikkalamizni askarblyat qildi, deyapti. Oyimning rangi bir zumda o'zgarib ketdi. Dadam bo'lsa, taqdirga tan bergandek, hamon boshini quyi solib o'tirardi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 48)
- b) *o'yg'a tolmoq*: Xudodanam o'rgilay! Bandasining boshiga shuncha g'am solmasa nima qipti-ya! Ikkalamiz indamay yo'lga tushdik. Oyim qo'limdan tutgan boshini quyi solib borar, chamasi boyagi bolani ham, hozir uyga borib dadamdan so'kish eshitishni ham o'ylar, o'ylab o'yiga yetolmas edi. (Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari", 62)
- c) *xafa bo'lmoq*: Anvar pochchasining keyingi kunlardagi dag'al muomalari sababini o'ylab, xafalanib yurar edi. Mohlar oyimning haligi so'zi bilan masalaga tushundi va yatimona boshini quyi soldi. Bu holdan opasi ta'sirlanib, ko'ziga yosh oldi. (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 23)
- d) *rozi bo'lmoq*: Javob yana falokatliroq edi. "Xo'b, non oldiraman" deyishka ham maxdumning majoli qolmag'an holda boshini quyi solib, javobsiz tashqarig'a jo'nadi. Mehmonxona sahnida kutib o'lturgan yigitka o'z qo'li bilan adras

to'nni kiydirdi (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 45)

- e) *xijolat bo'lmoq*: – Ishlaringiz qanday? – dedi kulimsirab Og'acha oyim. – Bizga kundashlar topib bo'ladimi? Bu savoldan Gulshan boshini quyi soldi, Og'acha oyim kulimsigancha Gulshandan javob kutib turar edi.

– Siz bizga kundash izlasangiz ham, – dedi Og'acha oyim, – albatta, o'z ixtiyoringizcha emas, sayidning amrlari bilan; shuning uchun bu to'g'rida men sizni ayblay olmayman.

Bu so'z bilan Gulshan bir oz xijolatdan chiqqandek bo'ldi. (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 65)

- f) *yoqtirmaslik*: – Muddaolariga cho'ringiz tushunmadim, oyi xonim.

– Tushunmagan bo'lsangiz, – dedi Og'acha, – mundan so'ng haramga xotin va kaniz keltirilmasin, deyman.

Gulshan boshini quyi soldi. Chamasi, Og'acha oyimning taklifi unga yoqmag'ansumon edi. Darhaqiqat, og'izdag'i oshni oldirish har kim uchun ham bir xil emasdir. (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 66)

- g) *andisha qilmoq*:

Shom namozini o'qub qaytgan maxdum mehmonxonaning eshigini ochiq ko'rdi. Uning kelganligini fahmlab, to'g'ri ichkariga o'tdi. Bir ozdan keyin tovoqda osh ko'tarib Nigor oyim chiqdi. Yig'idan kipraklari terilib, chuqur andisha ichida boshini quyi solg'an edi. Nigor oyim kirganda Anvar charog'poyag'a sha'm yoqar edi. (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 114)

- h) *sharmanda bo'lmoq*:

– Voy sho'rim qursin!..

– Albatta sho'ring quruydi, mocha!.. – dedi tunqotar.

Tunqotar, yigitlarga "orqamdan" ishoratini qilib, birdan sahnga chiqdi... Sahning o'rtasida qo'lida bir qog'oz ushlab, boshini quyi solg'an Solih maxdum turar edi. Maxdumning yonida ikki kishi, ulardan beriroqda paranjilik uch xotin qadalg'an edilar (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon", 127)

Keltirilgan badiiy matnlarda noverbal birliklar anglatgan ma'no faqatgina kontekstni tahlil qilish orqali emas, balki paralingvizmlardan keyin yoki oldin berilgan verbal ishoralar orqali ham reallashgani ayon bo'ladi. Xususan, "Mehrobdan chayon" romanidagi "... Yig'idan kipraklari terilib, chuqur andisha ichida boshini quyi solg'an edi. Nigor oyim kirganda Anvar charog'poyag'a sha'm yoqar edi..." qismida *andisha ichida* birikmasi paralingvizmning leksik ma'nosini oydinlashtirgan.

Kinesik noverbal birliklar g'oyat xilma-xil bo'lib, ulardagi omonimlik hodisasini birgina bosh bilan bog'liq paralingvizmlar bilan ifodalash mushkul. Bu borada qo'l harakatlarini ham misol qilib keltirish mumkin, chunki o'zbekona muloqotda qo'l bilan bog'liq kinesik vositalar ancha faol qo'llaniladi va deyarli har bir muloqot jarayoninig ajralmas qismiga aylanib qolgan. Ayniqsa, "qo'l ko'tarmoq" ifodasi o'zida bir qator kontekstual ma'nolarni jamlagani bilan xarakterlidir:

- a) *tinchlantirmoq*: To'planganlar qo'shiqni nafas yutib tinglashayotganda birdan mikrofon uzib qo'yildi. Elchin buning sababini darhol angladi-da, ovozini biroz ko'tarib, qo'shiqni davom ettiraverdi. Orqaroqdagi muxlislarga ovoz yetib bormay betoqat bo'lib hushtak chala boshlashdi. Elchin "tinchlanning", deganday qo'l ko'tardi-da, pastga tushdi. U keng davra o'rtasida turganday ashulasini davom ettirdi. (T. Malik "Shaytanat", 197)

Matndan anglashiladiki, "tinchlanning" verbalizmi harakatning ma'nosini to'la ochib berishga xizmat qilmoqda.

- b) *to'xtatish*: Shoira endi ortiga burilgan edi, Bashirjon: – To'xtang, – dedi o'ng qo'lini xiyol ko'tarib.

– Xo'jaqulovani ayting, tayinlagan odamlari bilan kirsin! (N.Aminov "Qahqaha", 41)

- c) *duo qilish*:

– Qani omin, – dedi Davron tog'a qo'l ko'tarib. – Qadam yetdi – balo yetmasin! Yigit

o'lmaylik, balo ko'rmaylik... ollohu akbar! (N. Aminov "Qahqaha", 54)

Navbatdagi ikki matnda ham bir-biriga mutlaqo o'xshagan ma'noviy xususiyatlar aks etgan va bu orqali "qo'l ko'tarmoq" paralingvizmining omonimligi yuzaga chiqqan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, paralingvistik vositalarning omonimiyasi – bu zamonaviy tilshunoslikda yetarlicha

o'rganilmagan, ammo muhim ilmiy hodisalardan biridir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, noverbal vositalar ham lingvistik birliklar kabi murakkab semantik tizimga ega bo'lib, ularning ma'nosi kontekstga bog'liq holda o'zgaradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish paralingvistika fanining rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

References:

1. Barotova, M. O. (2025). *O'zbekona paralingvistik vositalarning kognitiv asoslari*.
2. Hamdamova, S. S. (2026). *Paralingvistik vositalarning tasnifi haqida*. Universal Publishings.
3. Искандарова, Ш. (1993). *Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари* (Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук). Самарканд.
4. Мўминов, С. (2000). *Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари* (Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук). Ташкент.
5. Нурмонов, А. (1980). *Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари*. Андижон.
6. Tursunova, O'. (2023). *Paralingvistik vositalarni o'rganishning ahamiyati*. E-Conference Series.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Omonimlar>